

Oliy ta'lim muassasalari vakillari Qo'rg'ontepa tumani maktablarida

Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarni yanada jonlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, o'qituvchi-ustozlar nufuzini oshirish, joylarda sifatli ta'lim uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va har bir hududda ixtisoslashgan maktablar tarmog'ini kengaytirish borasida ibratli ishlar olib borilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev rahbarligida 2020-yil 30-oktabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Andijon davlat tibbiyot instituti o'quv ishlari bo'yicha prorektori v.v.b. B.Abdullajonov institutga biriktirilgan Qo'rg'ontepa tumanidagi 8-sonli umumta'lim maktabida bo'ldi.



Tashrif davomida B.Abdullajonov maktabda o'quvchilariga yaratilgan shart-sharoitlar, darsliklar bilan ta'minlanish darajasi, davomat, qishga tayyorgarlik masalalari bilan yaqindan tanishdi. Maktab jamoasi bilan Andijon davlat tibbiyot instituti va maktab o'rtasidagi hamkorlik aloqalari yuzasidan fikrlashdi.



Qo'rg'ontepa tumandagi 50-umumta'lim maktabida viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari mas'ul xodimlari maktab bitiruvchilari va ularning ota-onalari bilan ochiq muloqotda bo'ldilar.



Samimiy suhbatda Andijon davlat tibbiyot instituti o'quv ishlari bo'yicha prorektori v.v.b. B.Abdullajonov va Andijon Mashinasozlik instituti, Andijon qishloq xo'jaligi instituti vakillari, jumladan Andijon qishloq xo'jaligi instituti o'qituvchisi, falsafa fanlari doktori, nigeriyalik Ibitoy Olalekan oliy o'quv yurtlaridagi shart-sharoitlar, joriy yil oliy ta'lim muassasalariga bo'lib o'tgan qabul jarayonlari, abituriyentlarga berilgan imtiyozlar, viloyatimiz talaba-yoshlari erishayotgan yutuqlar bilan tanishtirdilar.

Tadbir ishtirokchilari o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilishdi va batafsil javoblar olishdi.



Oliy ta'lim muassasalari vakillarining Qo'rg'ontepa tumani maktablariga tashrifi ta'lim sifatini oshirishda alohida

ahamiyatga ega bo'lishga ishonamiz.



ADTI axborot xizmati

Andijon davlat tibbiyot institutining volontyorlar” “Yosh Jalaquduq tumanida jamoasi

Andijon davlat tibbiyot institutining “Yosh volontyorlar” jamoasi koronavirus pandemiyasi qarshi targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini Jalaquduq tumanida olib borishdi.



Targ'ibot aksiyasi davomida ko'ngilli yoshlar tumanning «Yangi ko'rpa», «Toshhovuz», «G'alaba» mahalla fuqarolar yig'inlari, shuningdek, «Yakkatut», «Dilkash», «Taraqqiyot», «Beshkurash» va Mirsodiqov nomdagi ko'chalarida bo'lishdi.



Targ'ibotchilar koronavirus pandemiyasi sharoitida niqob bilan yurish va gigienik qoidalarga amal qilish zarurligi to'g'risida tushuntirish ishlarini olib bordilar. Bundan tashqari, aholi o'rtasida ko'p uchraydigan kasalliklarning oldini olish bo'yicha ma'lumotlar berishdi.

Volontyorlar "Yorqishloq" mahallasida aholinig uylariga birma-bir kirib sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish va tez tibbiy yordam kelguniga qadar birinchi yordam ko'rsatish yuzasidan tushuntirish ishlarini olib bordilar.



Aholiga gigienik ma'lumotlar hamda koronavirus belgilari va uning oldini olish haqida ma'lumotlar jamlangan bukletlarni tarqatdilar. Jalaquduq tumani hokimi yosh targ'ibotchilarga o'z minnatdorchiligini bildirdi.



Andijon davlat tibbiyot instituti “Yosh volontyorlar” jamoasi koronavirus infeksiyasini oldini olish borasidagi targ‘ibot ishlarini faol davom ettirilmoqdalar. Ko‘ngilli yoshlarimizga omad tilaymiz!

ADTI yoshlar Kengashi media guruhi

Onkologiya va tibbiy radiologiya kafedrasida «1 dekabr – Butunjaxon OITS ga karshi kurash kuni» munosabati bilan seminar o‘tkazildi.

Onkologiya va tibbiy radiologiya kafedrasida manaviyat va marifat ishlari buyicha masuli D.A.O‘rmanbayeva tashabbusi

bilan «1- dekabr – Butunjaxon OITS ga qarshi kurash kuni» munosabati bilan seminar trening o'tkazildi.

Tadbirda kafedra professor-o'qituvchilari, onkologiya kursi rezidentlari, respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi shifokorlari, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar ishtirok etdilar.



Tadbirda onkologik markaz direktori G.J.Xakimova so'zga chiqib, har bir tibbiyot xodimi OITS kasalligi haqida to'liq malumotga ega bo'lgan holda ishlashi lozimligini aytib o'tdi va tibbiy xushyorlikka chorladi.

Seminarda OITSGa oid malumotlar, kasallikka oid so'nggi yangiliklar, shuningdek, ushbu kasallik bilan kasallangan bemorlarga to'g'ri yondoshish borasida trening, amaliy ko'nikmalar o'tkazildi.

Tadbir davomida ishtirokchilarga OITS bo'yicha o'tkazilgan treningning o'zlashtirish ko'rsatkichini o'rganish va taxlil qilish maqsadida test savollariga javoblar olindi.

Barcha ishtirokchilar kasallikka qarshi kurashishga oid tarqatma materiallar bilan taminlandi.



Tadbir so'nggida xotin-kizlar kengashining davolash fakulteti bo'yicha rais o'rinbosari D.A.O'rmanbayeva tibbiy faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarning sog'lom va baxtli oila qurishdagi o'rni haqida ma'ruza qildi.

«Sog'lom va zehnli ayol – sog'lom oila kalitidir» shiori ostida o'tkazilgan suhbat davomida Dilbarxon xayotning oila deb atalmish debochasida turgan qizlar va bo'lajak onalar uchun o'zining foydali maslahatlarini berib tadbirga alohida uyg'unlik baxsh etdi.

ADTI axborot xizmati


**«Tibbiyot
ko'ngillilar»
Andijon davlat** **sohasidagi
forumida
tibbiyot**

instituti talabalari faol ishtirok etdilar

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-dekabrdagi "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-585-sonli Qonuni ijrosini ta'minlash va 5-dekabr "Xalqaro ko'ngillilar kuni" munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan "Tibbiyot sohasidagi ko'ngillilar" forumi o'tkazildi.



Forum doirasida ishtirokchilar turli oliy ta'lim muassasalari va boshqa mavjud ko'ngillilar faoliyati bilan tanishtirildi, maxsus mahorat darslari (Master Class) o'tkazildi, ko'ngillilar faoliyati yuzasidan davra suhbatlari, bahs-muhokamalar tashkillashtirildi.



“Yoshlar ijodiyot saroyi”da bo‘lib o‘tgan forumda Andijon davlat tibbiyot instituti talabalari ko‘ngillilar harakati sifatida faol ishtirok etdilar.



ADTI yoshlar Kengashi media guruhi